



O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar – dekabr

2019 yilning yanvar – dekabrda kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushi **56,5** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **13,3** birlikni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar – dekabrda **92,9** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,9** martaba ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 36300 ta, sanoatda 19496 ta, qurilishda 8730 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 7469 ta, yashash va ovqatlanishda 7233 ta, tashish va saqlashda 2953 ta tashkil etilgan.

2019 yil yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019 yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	262930	334767	71837
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	48922	92874	43952
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaIM	%	60,4	56,5	-3,9
Sanoat	%	37,4	34,9	-2,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	98,3	98,3	0,0
Investitsiya	%	38,0	47,0	9,0
Qurilish	%	73,2	75,4	2,2
Savdo	%	86,3	84,3	-2,0
Xizmatlar	%	56,0	52,1	-3,9
Yuk tashish	%	55,5	54,6	-0,9
Yuk aylanmasi	%	79,6	77,4	-2,2
Yo'lovchi tashish	%	89,6	90,7	1,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	94,8	94,9	0,1
Eksport	%	27,2	28,7	1,5
Import	%	56,2	54,2	-2,0



2019 yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %




2019 yilning yanvar – dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Toshkent shahrida – 18252 ta, Toshkent viloyatida – 9671 ta, Samarqand viloyatida – 7980 ta. Navoiy viloyatida – 7129 ta, Farg'ona viloyatida – 6712 ta va Andijon viloyatida – 6632 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida – 3153 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar

	2018 yil yanvar – dekabr	2019 yil yanvar – dekabr	(+-)
O'zbekiston Respublikasi	48 922	92 874	43 952
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 177	3 645	1 468
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	3 131	6 632	3 501
Buxoro	3 024	6 154	3 130
Jizzax	2 319	3 432	1 113
Qashqadaryo	2 365	5 154	2 789
Navoiy	1 810	7 129	5 319
Namangan	2 709	5 447	2 738
Samarqand	4 312	7 980	3 668
Surxondaryo	2 781	4 845	2 064
Sirdaryo	1 354	3 153	1 799
Toshkent	5 080	9 671	4 591
Farg'ona	3 780	6 712	2 932
Xorazm	2 009	4 668	2 659
Toshkent sh.	12 071	18 252	6 181



2019 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, %




2019 yil yanvar - dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Toshkent shahri - 19,7 %, Toshkent viloyati - 10,4 %, Samarqand viloyati - 8,6 %, Navoiy viloyati - 7,7 %, Farg'ona viloyati - 7,2 %, Andijon viloyati - 7,1%, Buxoro viloyati - 6,6 %, Namangan viloyati - 5,9 %. Qashqadaryo viloyatida - 5,6 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr	(+;-)
Jami	48922	92874	43 952
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5586	7469	1883
Sanoat	11262	19496	8234
Qurilish	6360	8730	2370
Savdo	11713	36300	24587
Tashish va saqlash	2107	2953	846
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	3891	7233	3342
Axborot va aloqa	1228	1629	401
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1154	1269	115
Boshqa faoliyat turlari	5621	7795	2174

Ma'lumot uchun: 2019 yilning yanvar – dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr	Farqi (+-)
Chilonzor tumani	1474	2279	805
Samarqand sh.	1319	2222	903
Uchtepa tumani	985	2195	1210
Yunusobod tumani	1652	2121	469
Olmazor tumani	1208	2041	833
Mirzo-Ulug'bek tumani	1433	1983	550
Andijon sh.	983	1895	912
Buxoro sh.	987	1800	813
Shayxontohur tumani	1226	1672	446
Mirobod tumani	1089	1661	572

2019 yil yanvar – dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Chilonzor tumanida – 2279 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda





O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - dekabr holatiga*



2019 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Toshkent shahrida 28,8 birlik, Navoiy viloyatida 18,1 birlik, Sirdaryo viloyatida 17,9 birlik. Jizzax viloyatida 15,6 birlik, Toshkent va Buxoro viloyatlarida 14,9 birlik, Farg'ona viloyatida 12,2 birlikni tashkil etgan. Surxondaryo viloyatida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 8,3 birlikga to'g'ri keldi.

* Kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari




2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari




2019 yilning yanvar-dekabrida shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 57,0 birlik, Bektemir tumanida 52,3 birlik, Mirobod tumanida 44,6 birlik, Chilonzor tumanida 38,3 birlik, Guliston shahrida 37,4 birlik, Tomdi tumanida 35,6 birlik, Qorovulbozor tumanida esa 34,0 birlikni tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Bundan ko'rinib turibdiki, Yakkasaroy tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Narpay tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi Dinamikasi, yanvar - dekabr holatiga, %


2019 yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 56,5 %ni tashkil qildi. (2018 yilning yanvar - dekabrda 60,4 %).

YaIMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.






Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining eng ko'p salmog'i Jizzax (84,1 %), Namangan (79,2 %), Surxondaryo (78,2 %), Samarqand (77,5 %) va Buxoro viloyatlariga (75,7 %) to'g'ri keldi. Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib - 31,3 %ga teng.

Kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha YaHMDagi ulushi, %
2019 yil yanvar - dekabr






2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi, %




2019 yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
O'zbekiston Respublikasi	34,9	75,4	52,1	47,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22,2	89,1	54,3	32,1
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	21,4	97,0	68,7	67,3
Buxoro	32,1	86,6	69,2	54,4
Jizzax	66,5	98,0	63,2	69,2
Qashqadaryo	23,2	85,8	69,4	29,7
Navoiy	12,9	75,3	60,7	19,3
Namangan	73,9	94,7	66,3	54,2
Samarqand	53,8	95,8	71,1	62,3
Surxondaryo	53,0	81,5	71,9	74,7
Sirdaryo	47,2	95,5	58,8	61,2
Toshkent	27,6	78,3	70,5	33,9
Farg'ona	43,6	87,6	71,8	60,6
Xorazm	36,3	93,3	65,2	65,0
Toshkent sh.	67,4	72,5	46,0	46,6




Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2019 yilning yanvar - dekabrda






Kichik tadbirkor sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %



2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Xorazm viloyatida - 88,7 %, Namangan viloyatida - 80,1 %, Sirdaryo viloyatida - 79,7 %, Samarqand viloyatida - 76,2 %, Surxondaryo viloyatida - 73,5 %, Buxoro viloyatida - 67,7 %, Jizzax viloyatida - 67,1 % va Andijon viloyatida - 57,8 %ni, eng past ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida - 20,8%ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, %



2019 yil yanvar - dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jami nisbatan eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida – 96,7 %, Farg'ona viloyatida – 77,3 %, Sirdaryo viloyatida – 75,0 %, Surxondaryo viloyatida – 72,5 %, Namangan viloyatida – 70,7 %, Xorazm viloyatida – 70,1 %, Samarqand viloyatida – 69,4 %, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 63,5% va Toshkent shahrida – 57,8 %ga to'g'ri kelgan. Eng past ko'rsatkich Andijon viloyatida - 15,2 %ni tashkil etdi.



2019 yilning yanvar - dekabrda hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat
mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Toshkent shahri (39586,7 mlrd. so'm), Toshkent (14892,8 mlrd. so'm), Samarqand (8527,0 mlrd. so'm) Farg'ona (8490,2 mlrd. so'm) va Andijon (7058,3 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Surxondaryo viloyatida (2331,5 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2019 yil yanvar - dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Namangan viloyati (73,9%), Toshkent sh. (67,4%), Jizzax viloyati (66,5%), Samarqand viloyati (53,8%), Surxondaryo viloyati (53,0%), Sirdaryo viloyati (47,2%), Farg'ona viloyati (43,6%), Xorazm viloyati (36,3%), Buxoro (32,1%) va Toshkent viloyatlarida (27,6%) tashkil etdi. Navoiy viloyatida (12,9%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2019 yilning yanvar - dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana tovar aylanmasi hajmi Toshkent shahri (26503,9 mlrd. so'm), Toshkent (15747,4 mlrd. so'm), Samarqand (12281,1 mlrd. so'm), Farg'ona (11944,2 mlrd. so'm), Andijon (10896,1 mlrd. so'm), Qashqadaryo (10176,1 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.



2019 yilning yanvar - dekabrda hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Toshkent shahri (11175,1 mlrd. so'm), Qashqadaryo (4001,1 mlrd. so'm), Samarqand (3926,2 mlrd. so'm), Toshkent (3821,4 mlrd. so'm), Buxoro (3755,8 mlrd. so'm), Andijon (3722,8 mlrd. so'm) Farg'ona (3560,3 mlrd. so'm) hamda Namangan (3238,8 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.





2019 yilning yanvar - dekabrda hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar
sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Toshkent shahri (30061,5 mlrd. so'm), Toshkent (9685,8 mlrd. so'm), Samarqand (8724,8 mlrd. so'm), Farg'ona (8102,0 mlrd. so'm) va Andijon (6683,2 mlrd. so'm), Qashqadaryo (6066,2 mlrd. so'm) va Buxoro (5645,8 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil IV chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **14187** ta respondentlar ishtirok etdi.


2019 yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoatdagi ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 5,4 % (768 ta.), sanoatda – 19,6 % (2781 ta), qurilishda – 11,3% (1603 ta) , savdoda – 28,2 % (3996 ta), xizmatlar sohasida – 35,5 % (5039 ta).

* yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

2019 yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirm va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019 yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirm va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun qoniqarli iqtisodiy vaziyat yaxshilandi va joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan ularning bahosi 7,9 punktga, qurilish korxonalarida mos ravishda 4,9 punktga, xizmatlar sohasida 2,8 punktga va savdo korxonalarida 1,7 punktga o'sdi.

Shu bilan birga, barcha kuzatilgan korxonalarda qulay iqtisodiy vaziyatning bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida III chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida (1,8 punktga), qurilish korxonalarida mos ravishda 1,7 punktga, sanoat korxonalarida (1,5 punktga) hamda savdo korxonalarida 0,5 punktga o'sdi.



Oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumga ega bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarining 2019 yil III va IV choragi bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy holat yaxshilandi va ularning bahosi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 4,7 punktga, savdoda 3,6 korxonalari punktga, sanoatda 2,9 punktga, xizmatlar sohasida 2,9 punktga oshdi.


Shu bilan birga, barcha kuzatilgan korxonalarda qulay iqtisodiy vaziyatning bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida o'tgan yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 2,5 punktga, xizmatlar sohasi 2,3 punktga, savdo sohasi 1,9 punktga pasayishi kuzatildi.

Eng katta ulushni umumiy iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb topgan korxonalar tashkil qiladi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2018 – 2019 yillar IV chorakdagi iqtisodiy vaziyatni baholash, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan iqtisodiy vaziyatni yaqin uch oyda yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaydi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, faoliyatning deyarli barcha turlari bo'yicha yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 0,6 punktga, qurilishda 0,3 punktga kamaydi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil III va IV choraklardagi iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oyda baholanishi %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalarda iqtisodiy faoliyat turlarining deyarli barcha bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi savdo sohasida 4,7 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 6,2 punktga, sanoat korxonalarida 5,6 punktga, xizmatlar sohasida 1,5 punktga o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 0,7 punktga qurilishda 0,3, savdo sohasida 0,5 punktga va xizmatlar sohasida 0,1 punktga kamaydi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarining 2018 - 2019 yillar IV chorakdagi iqtisodiy vaziyating yaqin uch oyda baholanishi, %







2019 yil IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1275 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 280 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 22,0%), qurilish – 131 ta (10,3%), savdo – 482 ta (37,8%) va xizmatlar – 287 ta (22,5%), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 95 ta (7,4%).

2019 yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi






2019 yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019 yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning IV choragida qulay iqtisodiy vaziyati xizmatlar sohasida yaxshilandi va joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan ishlarning yaxshilanishi va ularning bahosi 5,8 punktga, qurilishda - 5,2 punktga, savdo korxonalarida - 4,6 punktga, sanoat sohasida mos ravishda 3,8 punktga oshdi.

Shu bilan birga, Joriy yilning IV choragida III chorakka nisbatan iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlarida kamayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida shu yilning III choragiga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 4,2 punktga, sanoatda 0,1 punktga, qurilishda 1,3 punktga, savdoda 2,1 punktga o'sishi kuzatildi.




2019 yil III va IV choraklardagi yangi tashkil etilgan korxonalar iqtisodiy vaziyatni baholash, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning IV choragida o'tgan yilning IVchoragiga nisbatan qulay iqtisodiy vaziyat sanoat korxonalarida 4,5 punktga, savdo korxonalarida 4,1 punktga va xizmatlar sohasida 4,9 punktga ko'paydi.

Shu bilan birga, Joriy yilning IV choragida III chorakka nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyati yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaydi.



2018 - 2019 yillar III chorakdagi yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy vaziyatni baholash, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra 2019 yilning IV choragi joriy yilning o'tgan choragi bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan qurilish korxonalari ulushi - 10,7 punktga, savdo korxonalari ulushi - 3,2 punktga, xizmatlar sohasi korxonalari ulushi - 3,0 punktga o'sdi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyatni o'tgan chorakka nisbatan o'zgarishsiz qoladi deb baholagan korxonalarining barcha faoliyat turlari bo'yicha ulushi kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi faqat qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 0,8 punktga kamaydi.



2019 yil III va IV choragida yangi tashkil etilgan korxonalarining yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni baholash, %



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra 2019 yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 9,4 punktga, sanoat korxonalari - 0,9 punktga, qurilish korxonalari 4,0 punktga, savdoda 0,6 punktga oshdi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 1,3 punktga oshdi.

Qolgan faoliyat turlari bo'yicha ulushi kamayganlar: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 7,5 punktga; sanoat korxonalari - 1,3 punktga; qurilish korxonalari 5,3 punktga; savdoda 0,6 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi faqat qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari 1,9 punktga oshdi. Qolgan faoliyat turlari bo'yicha ulushi ko'paydi.

